

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI NOSTANDART ARIFMETIK MASALALARINI YECHISHGA O'RGATISH

F.M. Kasimov,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori

M.M. Qosimova,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.025>

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini nostandart arifmetik masalalarini yechishga o'rgatish metodikasi yoritilgan. Bunday masalarni yechishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatadi.

Tayanch so'zlar: masala, arifmetik masala, nostandart masala, arifmetik amal, misol, topshiriq.

ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ РЕШЕНИЮ НЕСТАНДАРТНЫХ АРИФМЕТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Ф.М. Касимов,
профессор Бухарского государственного педагогического института.

М.М. Касимова,
доцент Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье описана методика обучения учащихся начальных классов решению нестандартных арифметических задач. Обучение решению подобных задач учит учащихся младших классов мыслить творчески.

Ключевые слова: задача, арифметическая задача, нестандартная задача, арифметика, пример, задание.

TEACHING PRIMARY CLASS STUDENTS TO SOLVE NON-STANDARD ARITHMETIC PROBLEMS

Kasimov F.M.,
is a professor of the Bukhara State Pedagogical Institute

Kasimova M.M.,
Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article describes the methodology of teaching primary school students to solve non-standard arithmetic problems. Teaching to solve such problems teaches elementary school students to think creatively.

Keywords: matter, arithmetical task, arithmetical action, unsetlet matter example, task.

Kirish. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini matnli masalalar yechishga o'rgatish, ularda mantiqiy fikrlash, tafakkur yuritish mulohaza qilib to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalar shakllanishiga yordam beradi. Ayniqsa, nostandart masalalar o'quvchi fikrlash doirasini kengaytiradi, chuqr mulohaza yuritish ko'nikmasi tarkib topishiga olib keladi. Keyingi yillarda chop etilayotgan darsliklarda nostandart masalalarning kiritilayotgani quvonarli hol. Ammo bunday masalalar salmog'i nihoyatda oz.

Kuzatish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik boshlang'ich sinf o'quvchilar, hatto ayrim boshlang'ich sinf o'qtituvchilar ham bundan mustasno emas, nostandart masalalarni yechishga qiynalishadi, ammo bunday masalalar yechishga qiziqishlari baland. Buning boisi, boshlalang'ich sinf matematika o'qitish jarayonida- matematika darslarida, darsdan tashqari mashg'ulotlarida bunday masalalarni o'quvchilar bilan ham mushohada qilib echilishidadir. Nostandart so'zi standart bo'limgan so'z birikmasi bilan ekvivalent bo'lib, amaliyotda ko'p uchraydi.

O'zbek milliy ensiklopediyasida standart iborasi quyidagicha talqin qilinadi: "Standart – (ing.

standart – me’yor, namuna, o’lcham) keng ma’noda boshqa obyektlarni taqqoslash uchun dastlabki obekt deb qabul qilingan namuna, etolon, model”.

“O’zbek tilining izohli lug’ati” da standart so’zini ko’chma ma’nosi “bir qolipdagi”, shablon manolarini anglatishi nostandard – standartga mos kelmaslik, standartdan tashqari degan ma’nolarni bildirishi qayd etilgan.

Metodlar. Masalalar yechish jarayonida ham standart va nostandard iboralarini ishlatalamiz. Boshlang’ich sinf matematika darsliklaridagi aksariyat, ko’pchilik masalalar standart yechim yo’liga ega masalalardir, ya’ni berilgan masala qaysidir tur (tip)ga taalluqli bo’lib uning o’ziga xos belgilariga yechim yo’li mavjud. Masalan songa yig’indini qo’shishga doir yoki sondan yig’indini ayirishga doir masalalarni yechim yo’llari aniq qoida (xossaga) bo’ysunadi. Bunday masalarning yechim usullari turlicha bo’lgan taqdirda ham masala turiga qarab yechish usullari aniq yo’l-yo’riqqa ko’ra boshqariladi. Nostandard yechim yo’liga ega bo’lgan masala- topshiriqlarda esa biror aniq yo’l-yo’riq asosida yechim izlanmaydi, balki masala mazmunidan kelib chiqib, masalaning yangi, original yechim yo’li izlanadi. Uning nostandardligi ham shu yerda. Bunday o’quv topshiriqlarining afzalligi shundaki, u o’quvchining mantiqiy tafakkurini o’stridi, mustaqil fikr yuritish ko’nikmasini tarkib toptiradi, matematika faniga bo’lgan qiziqishini oshiradi, masala yechimini izlash jarayonidagi qiyinchilik, mashaqqatlarga bardosh bilan qarash tuyg’usini, maqsadga intilishlik, sabr-matonatlik, topqirlik kabi xislatlarni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

Albatta, boshlang’ich sinf o’quvchisini bunday masala-topshiriqlar bilan tanishtirib borish, amaliyotda uchraydigan nostandard ko’rinishdagi topshiriqlarni bajara bilishga undaydi. O’quvchi mustaqil fikrlab, o’zining yechim yo’lini qo’llab masalani yechadi, topgan yechim variantidan zavqlanadi. Bu esa o’z navbatida boshlang’ich sinf o’quvchisining ijodiy faoliyatini rivoj topishiga katta yordam beradi.

Nostandard masalalarni ma’lum guruhlarga ajratib tasniflab bo’lmaydi. Ammo ayrim nostandard masalalarni (o’xshash masalalar) yechish bo’yicha usuliy ko’rsatmalarni berish mumkin. Buning uchun, dastavval o’quvchilarda matnli masalalarni yechish bo’yicha umumiyligi malakalar (masala matnini o’zlashtirish, masaladagi berilganlar va izlanadiganlarni ajratish, ular orasidagi bog’lanishlarni tasvirlab olish, masalani muhokama qilish, yechish rejasini tuzish, masala yechimini izlash, masala yechimini tekshirish) shakllanishi zarur. Keyingi qilinadigan ish o’quvchilarning masalalar yechish bo’yicha egallagan umumiyligi ko’nikmalariga asoslangan holda masalalarni mustaqil muhokama yuritib, yechimini izlashga o’rgatish kerak. Navbatdagi ish o’quvchilarni ayrim nostandard masalalarni yechish bo’yicha usuliy tavsiyalarni o’rgatib borishdir.

Natijalar. 1-tavsiya. Nostandard masalalarni yechish uchun masalaga oid chizma yoki rasmdan foydalaning. Shuni ta’kidlash joizki, o’quvchilar nostandard ko’rinishdagi masalalarni yechishda ham rasm, chizmalardan foydalanishgan, ammo nostandard masalalarda yechimni chizma orqali arifmetik amallar bajarmasdan, shuningdek, chizmadan foydalanib, arifmetik amal bajarib ham topish mumkin.

1-masala. 10 metrli sim arqonni 5 ta teng qilib kesildi. Necha marta kesildi?

Ushbu masalani o’quvchilar o’qigach, bu masalani yechish ulardan talab qilinadi. O’quvchilar orasidan masalada 10 metrli sim arqonni 5 ta teng qismga bo’linganligi uchun $10:5=2$ m deb xulosa chiqaruvchi o’quvchi ham topilishi tabiiy. Chunki o’quvchilar standart masalalarni yechishda masaladagi son malumotlar ustida amallar bajarib, yechimni izlashgan. Bu topilgan son malumot, 2 metr masala javobi emasligiga ishonch hosil qilish uchun o’qituvchi “masala savolda nimani topish kerak?” deb murojaat qiladi. O’quvchi matndagi masala savoli: “necha marta kesishdi?”ni qayta xotirasiga keltirganda noto’g’ri yechim yo’lini topganini payqaydi. Ayrim o’quvchilar masala javobini besh marta kesildi deb ham aytadi, chunki, beshta teng kesilmani besh marta kesishdi deb noto’g’ri fikr bildiradi. Shunda o’qituvchi masalaga oid chizma yasashni taklif qiladi: Daftaringizga uzunligi 10 sm li, eni 1 katak bo’lgan to’g’ri to’rburchakni chizing. O’quvchilar daftarlarida bajarishadi.



10 metr


Shunda o’qituvchi shu to’g’ri to’rburchakni beshta teng qismga ajrating. Har bir ajratgan chizig’ingizni

alohida qilib chizing. Nechta chiziq hosil bo'ldi? (4ta). Demak, 4 marta kesishdi. Bu masala yechimi chizma orqali aniqlandi.

Nostandard ko'rinishdagi masalalarini yechish uchun chizma yoki rasmni tasvirlash kerak. Ayrim hollarda chizma yoki rasm orqali masala yechimi beriladi.

Shu tavsiyaga asoslanib yechiladigan 2-turkum masalalariga nostandard masalalarning bir qismi chizma asosida, ikkinchi qismi esa arifmetik amallarni bajarish asosida yechiladigan masalalar kiradi.

2-masala. Deraza oynasiga pardani qadash uchun 6 ta qisqichni teng uzunlikda qadash kerak. (birinchi va oxirgi qisqichlar parda chetlarida bo'ladi). Parda eni 1 m 80 sm bo'lsa, qisqichlar orasidagi masofani toping. Ushbu masalani yechish uchun o'quvchilar shartli chizma chizib, uni teng qismlarga bo'lib, 6 ta joyidan belgilari qo'yishadi.



Chizmadan ayon bo'ladiki, parda eni 1 m 80smni 6 ta emas, 5 ta teng bo'lish kerakligi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi va $1 \text{ m } 80 \text{ sm} = 180 \text{ sm}$ ekanini inobatga olib masala yechimini topadi. $180:5=36$ (sm)


Ushbu tavsiyaga asoslanib yechiladigan ayrim nostandard masalalarga qo'shimcha bir nechta chizmalarni qilishga to'g'ri keladiki, bu masala yechimini topishga xizmat qiladi, ayniqsa o'quvchining bunday turdag'i masalani yechishda yo'l qo'yadigan xatosini oldini oladi.

3-masala. O'rgimchak 10 m balandlikdagi simyog'och tepasiga ko'tarilmoqda. U kunduzi 5 m ko'tarilib, kechqurun 3 m pastga tushadi. O'rgimchak necha kunda simyog'och tepasiga ko'tariladi?

O'quvchilar bu masalani mustaqil yechib, quyidagi xatolikka duch kelishadi. Chizmani chizib, 5 kunda simyog'och tepasiga

$$1) 5 - 3 = 2 \text{ (m)}$$

2) $10 \text{ m} : 2 \text{ m} = 5$ (kunda) chiqadi degan masalani noto'g'ri javobini aytishadi.




Qo'shimcha chizmalarni tasvirlab, mulohaza yuritib masalaning to'g'ri javobini aniqlashadi.


1-kun 5 m yuqoriga ko'tariladi va 3 m pastga tushadi. Shunda $5-3=2$ m farq kamayadi, ya'ni $10-2=8$ m masofa yuqoriga chiqishga qoldi. Endi o'rgimchak 5 m kunduzi ko'tariladi, kechqurun 3 m tushadi. Shunda farq $6-2=4$ m qoladi. 4-kunga simyog'och tepasiga chiqib oladi

Ko'rrib turibdiki bunday nostandard ko'rinishdagi masalalarini yechishda chizma bilan birga mulohaza yuritish ham katta ahamiyat kasb etadi.

4-masala. Nodir bilan Bobur poyezd tarkibidagi 6-vagonda uchrashib qolishdi. Nodir poyezdni boshidan, Bobur esa oxirgi vagondan chiqqan bo'lsa, poyezd tarkibi nechta vagon bo'lgan? (11 ta vagon)



5-masala. Polizning old tomoni 16 m bo'lib, uni chambara bilan to'sish uchun har 2 m masofaga qoziq cho'p qoqishdi. Nechta cho'p qoziq ishlatalishgan? (9 ta)




3-turkum masalalar


Bunday turkumdagи masalalarni yechishda yordamchi element(qism) kiritishni taqozo qiladi.

6-masala. 45 ta qalamni 4 ta qutiga shunday joylashtiringki, agar 3-qutidagi qalamlarni 2 marta orttirib, 4-qutidagi qalamlar 2 marta kamaytirilsa va birinchi, ikkinchi qutidagilar o'z holicha qolsa, to'rtala qutidagi qalamlar soni bir xil bo'lib qoladi. Dastlab har bir qutida nechta qalam bo'lган?

Ushbu masala matnini o'quvchi yaxshi o'zlashtirgach, masala shartini chizmada ifodalashga harakat qiladi.



Bu chizma masala yechimini topish uchun etarli emas, o'qituvchi o'quvchi oldiga shunday qo'shimcha ish qilishni taklif qiladiki, masala yechimini topish aniqroq qilib aytganda teng kesmachalar soni bilan qalamlar soni proporsional bog'lanishda bo'lsin. Shunda 3-qutidagi qalamlar sonini 1 qism deb qarab, 1- va 2-qutidagi qalamlar 2 qismdan 4-qutidagi qalamlar esa 4 qismdan iborat bo'ladi.




Masala yechimini quyidagi tartibda topish mumkin bo'ladi: Masalani savol qo'yib yechamiz.

1. 3-qutidagi qalamlarni 1 qism desak, jami qalamdonda qalamlar necha qismni tashkil etadi?
 $2+2+1+4=9$ (qism)

2. 3-qutidagi qalamlar nechta? $45:9=5$ (ta qalam)
3. 1-va 2-qalamdondagi qalamlar nechtadan? $5*2=10$ (ta qalamdon)
4. 4-qalamdondagi qalamlar nechta? $5*4=20$ (ta)


Javob: 1-qalamdonda 10 ta, 2-qalamdonda 10 ta, 3-da 5 ta, 4-qalamdonda 20 ta.
 7-masala. Arqon shunday 2 ta bo'lakka ajratildiki, biri 2-sidan 4 marta uzun bo'lib, u 18 m ga uzun. Har bir bo'lak arqon uzunligini toping.



4-turkum masalalarini yechimini topishda tanlash usulidagan foydalanish mumkin. Quyidagi masalani qaraymiz:

8-masala. To'rtta turlicha sonning yig'indisi 13ga teng. Eng kichik son eng katta sondan 5ta kam. Bu sonlarni toping.

$$\square + \square + \square + \square = 13$$




Ushbu masala yechimi izlashda tanlash usulidan foydalilanadi. 0 sonini tekshirib ko'ramiz. $0 + \square + \square + 5 = 13$. Bo'sh kataklardan raqamlarni topishga harakat qilamiz. $\square + \square = 8$. Ikkinci va uchinchi sonlar turlicha bo'lib, ular 0 va 5 sonlari orasida bo'lishi kerak. Bu shartni qanoatlantiruvchi sonlarni topib bo'lmaydi. Demak, 0 to'g'ri kelmaydi. Endi 1 sonini qo'yib tekshiramiz: $1 + \square + \square + 6 = 13$ ni hosil qilamiz. Bundan $\square + \square = 6$ kelib chiqadi. 1 va 6 sonlari bor. Shunday 2 ta turlicha son yig'indisi 6 bo'lgan sonlar: 2 va 4dir. Biz topgan sonlar to'g'riliğini tekshiramiz: $1 + 2 + 4 + 6 = 13$

Endi bu masala shartini qanoatlantiruvchi boshqa sonlar ham bormi? 2,3,4 sonlarini navbat bilan qo'yib chiqib, masala shartini qanoatlantirmasligini ko'rish mumkin. Shu sababli ushbu masala yechimi: 1,2,4,6 sonlarini ifoda etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, tanlash usuli bilan yechish jarayonida topshiriq mazmunidan kelib chiqqan holda sonlarni har doim kichigidan emas, balki kattasidan yoki imkoniyatga qarab masala shartni qanoatlantiruvchi sonlardan boshlash maqsadga muvofiqir.

Quyidagi masalalar tanlash usuli bilan yechiladigan topshiriqlardan sanaladi.

9-masala. 3 ta turlicha 2 xonali sonlar yig'indisi 34ga teng. Bular qanday sonlar?(10, 11, 13)



Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchi quyidagicha mulohaza yuritishi mumkin: 3 ta ikki xonali son bo'lgani uchun, sonlar 2 xonali bo'lisi kerak. Har bir sondagi o'nlar xonasidagi raqam 1 bo'lisi aniq. Chunki 3 ta o'nlik 30ni tashkil etadi. Masala shartiga ko'ra 3ta 2 xonali son yig'indisi 34ga teng bo'lisi kerak. Demak, quyidagi sxema o'rini bo'ladi:

$$1\square+1\square+1\square=34$$

Endi sonlardan birlik xonadagi raqamlarni topish kerak. Masalaning yechimi

$\square+\square+\square=4$ ga kelib taqaladi. Tanlash usuli bilan bu raqamlar 0,1,3 ekanligini ko'rish mumkin. Chunki 4 soni tarkibi $0+1+3=4$. Boshqa variant qanoatlantirmaydi. J: 10,11,13.

10-masala. Anvar, Bobur, Kamol uchovlari 14 ta baliq tutishdi. Anvar eng kam baliq tutdi. Kamol Boburga qaraganda 3 marta ko'p baliq tutdi. Har birlari nechtadan baliq tutishgan? (Anvar-2 ta, Bobur- 3 ta, Kamol- 9 ta)

11-masala Olim, uning otasi va bobosining birlgilidagi yoshlari yig'indisi 114 ga teng. Agar ular yoshlari 2 xonali sonni ifodalab, birlik xonadagi raqami bir xil bo'lsa, Olim , uning otasi va bobosining yoshi nechada? (Olim-18, otasi-38, bobosi-58 yoshda)

4-turkum masalalar

Bunday turkumdagagi masalalarni yechishda quyidagi tavsiyani berish maqsadga muvofiq:

Berilgan masalani o'quvchi tushunishi uchun uning ma'lum saqlangan holda shaklan o'zgartirib masalani bayon etish. Bu narsa matnli masalani matematik tilda qayta bayon etish hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bu usulni "masala matnini o'zgartirish usuli" deb nomlasa ham bo'ladi.

12-masala. Savatdagi olmalar soni 2 xonali. Bu olmalarni 2 ta, 3 ta, 5 ta bolalarga teng bo'lib berib bo'ladi. Ammo 4 ta bolaga teng bo'lib bo'lmaydi. Savatda nechta olma bor?

Ushbu masala o'quvchilarga berilganda, o'quvchilar masala sharti uchun chizma chizishga harakat qiladi, tanlash usuli bilan masala yechimini topishga qiynalishadi. Shu paytda masala matnini quyidagicha o'zgartirib aytilsa, yechimni izlash ancha oson bo'ladi.

Masala : "shunday 2 xonali sonni topingki, u 2,3,5 ga bo'linsin, 4ga bo'linmasin. O'quvchilar tanlash usuli bilan $2*3*5=30$ ta deb topishadi. Demak savatda 30 ta olma bor.

Quyidagi masalalar yechimini topishda "Masala matnini o'zgartirish" usulidan foydalanish mumkin.

13-masala. Agar konfetlarni 2 tadan, 3tadan, 4tadan qilib taqsimlasak doimo 1ta konfet ortib qoladi. Agar ularni 5 tadan qilib taqsimlasak ortiqcha konfet qolmaydi. Agar konfetlar soni 50 tadan kamligi aniq bo'lsa konfetlar nechta?(25ta)

5- turkum masalalari

Bunday turkum masalalarni yechishda "masalani qismlarga bo'lib yechish" tavsiyasidan foydalanib yechish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi masalani qismlarga bo'lib, har bir qismga oid masala yechiladi.

14-masala. Ikki avtobusda 123 ta sayohatchi bor edi. Bir avtobusdan 8 kishi chiqib, 3 tasi ikkinchi avtobusga o'tirdi. Qolgani boshqa mashina bilan jo'nadi. Shundan so'ng avtobuslarda barobardan sayohatchi bo'lishdi. Dastlab har bir avtobusda nechtadan yo'lovchi bo'lgan?

Ushbu masala uchun o'quvchilar dastlab quyidagi chizmani chizishadi:

1-qizcha:	<table border="1"><tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr></table>					<table border="1"><tr><td></td><td></td></tr></table>				
2-qizcha:	<table border="1"><tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr></table>					<table border="1"><tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr></table>				
3-qizcha 1200 so'm										

O'qituvchi masalani qismlarga ajratib yechishni tavsiya qiladi. O'quvchilar masala matnidagi 2 ta gapni o'qib, fikrlab, shu shartdagi qismga taalluqli yechimni aniqlashadi:

1. $8-3=5$ (yo'lovchi)- boshqa mashinada ketishdi
2. $123-5=118$ (yo'lovchi)- 2ta avtobusda qolgan yo'lovchilar.


Keyin masalaning 2- qismining yechimini izlashadi.

3. $118:2=59$ (yo'lovchi)-har bir avtobusda bo'lди
4. $59+8=67$ (yo'lovchi)-1-avtobusda bo'lган
5. $59-3=56$ (yo'lovchi)-2-avtobusda bo'lган.

Ba'zan masala shartini emas, savolini ham qismlarga ajratib yechish usulidan ham foydalaniladi.

15-masala. 18 ta albom 30 ta qalamdan 3000 so'm qimmat. Shu 18 ta albom 40 ta qalamdan 1000 so'm qimmat. 1 ta albom qancha turadi? 1 ta qalam qancha turadi?

Ushbu masala qisqa sharti uchun chizmadan foydalanish mumkin.



8 та

Chizmaga qarab, masala savoli 2ga bo'lib topiladi. Dastlab 1 ta qalam qancha turadi? So'ngra 1 ta albom qancha turadi?

1-qism uchun yechim:

1. $40-30=10$ (ta qalam)-qalamlar farqi
2. $3000-1000=2000$ (so'm)-10 ta qalam puli
3. $2000:10=200$ (so'm)- 1 ta qalam narxi

2-qism(1 ta albom qancha turadi?) uchun yechim:

4. $200*30=6000$ (so'm)-30 ta qalam puli
5. $6000+3000=9000$ (so'm)-18 ta albom
6. $9000:18=500$ (so'm)-1 ta albom narxi

"Masala sharti yoki savolini qismlarga ajratib yechish" usuliga asoslanib quyidagi masalalarni yechish mumkin.

16- masala. 2 ta shoxda 16 ta qush qo'ngan edi. 2-shoxdan 2 ta qush uchib ketdi va 1-shoxdan 2-shoxga 5 ta qush qo'ngandan so'ng ikkala shoxdagi qushlar soni teng bo'lди. Dastlab har bir shoxda nechtadan qush qo'ngan? (J:12 va 4 ta)

17- masala. 3 dugona bayram dasturxonasi uchun 12 ta somsa sotib olmoqchi bo'lishdi. 1-qizcha 5 ta, 2-qizcha 7 ta somsa sotib oldi. 3qizcha esa 1200 so'm pul berdi. Bu pulni birinchi va ikkinchi qizchalar qanday bo'lib olishadi?(300 so'm 900 so'm)

6-turkum masalalar.

Bunday masalalarni yechishda yechimni oxiridan boshlab topish degan tavsiyaga asoslaniladi.

18 – masala. Ertalabki nonushtaga ona quymoq pishirdi va uni likopchalarga qo'ydi. To'ng'ich o'g'il quymoqlarning uchdan birini yeb ishga ketdi. O'rtancha o'g'il qolgan quymoqlarning uchdan birini yeb matabga yo'l oldi. Kenja o'g'il turib quymoqlarning uchdan birini yegandan so'ng likopchda sakkizta quymoq qoldi. Ona nechta quymoq pishirgan?

Masala mazmunini oydinlashtiruvchi shart chizma variantini beramiz va masalani oxiridan boshlab yechimni topishga harakat qilamiz.


Yechish:

1. $8:2=4$ (ta) – kenja o'g'il yegan
 2. $4*3=12$ (ta)
 3. $12:2=6$ (ta)o'rtancha o'g'il yegan
 4. $6*3:2=9$ (ta)- katta o'g'il yegan
 5. $9*3=27$ (ta) – ona pishirgan quymoqlar
- J: 27 ta quymoq

Quyida keltiriladigan masalalarni yechishda yechimni oxiridan izlab topish tavsiyasidan foydalaniladi.

19-masala. O'quvchi bir son o'yldi. Uni 3 ga ko'paytirdi. Ko'paytmadan 10ni ayirdi. Natijaga 16ni qo'shdi, 21 hosil bo'lди. O'quvchi qanday son o'yldi? (5)

20-masala. O'quvchi 4 ta kesma chizdi. Har bir kesma oldingisidan 2 sm uzun. Agar 4-kesma uzunligi 12 sm bo'lsa, 1-kesma uzunligini top.(6 sm)



Xulosa. Nostandard masalalarni yechish o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil-ijodiy fikrlash bilan birga ularni kreativ fikrlashga undaydi. Bu esa o'quvchilarni o'ziga ishonuchanligini oshirib mustaqil-o'z fikriga ega bo'lgan qat'iy irodali shaxslarni kamol topishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Qosimova, M. M., & Usmonova, Z. U. (2022). Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarda tejamkorlik ko'nikmasini tarkib toptirish. Pedagogs jurnali, 1(1), 75-77.

Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). Matematikadan ijodiy o'quv topshiriqlarining metodik xususiyatlari. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 2(2), 206-211.

Qosimov, M. F., & Kasimov, F. F. (2021). Methods of teaching to solve non-standard problems. Middle European Scientific Bulletin, 11.

Muhammedovich, Q. F., & Muhammedovna, Q. M. (2022). Boshlang'ich sinfda orta arifmetik sonni topishga doir masalalar yechishga o'rgatish metodikasi. Барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 2(4), 358-362.

Qosimova, M. (2020). On some typical problems to be solved in primary schools: on some typical problems to be solved in primary schools. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 2(2).

Muhammedovich, Q. F., & Muhammedovna, Q. M. (2022). Boshlang'ich sinfda orta arifmetik sonni topishga doir masalalar yechishga o'rgatish metodikasi. Барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 2(4), 358-362.

Kasimov, F. M., & Qosimova, M. M. Technology Of Work On Comparison Tasks.